

BOKSCHI QIZLARNI INDIVIDUAL MASHG‘ULOT JARAYONIDA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARGA O‘RGATISH USULLARI

Andijon davlat universiteti

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi

Ulug‘bek Xolmuratov

Annotatsiya: Har bir masofadagi olishuv turli-tuman sharoitlarda o‘tadi va o‘zining qonuniyatlariga ega. Zarbalarni berish va himoyaga o‘tish vaqti raqiblar o‘rtasidagi masofaga bog‘liq. Jangovar masofa qancha qisqa bo‘lsa, zarba shuncha tez va sezilmasdan nishonga yetib boradi hamda undan himoyalaniş shuncha qiyin bo‘ladi. Masofa qancha uzoq bo‘lsa, bokschi raqibi zarbalaridan shuncha osonlikcha himoyalaniadi. Har bir masofa uchun zarbalardan himoyalaniş imkoniyatini belgilab beruvchi vaqt chegarasi mavjud. Bokschi qizlarda uzoq masofada o‘rta masofaga qaraganda, o‘rta masofada esa yaqin masofaga qaraganda himoyalaniş uchun yaxshi sharoit mavjud. Uzoq masofada o‘rta masofaga nisbatan harakatlarni bajarish uchun vaqt ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, u baribir sekundlarda hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Xalqaro, kuchli, jang, san’ati, zarur, bokschi, uzoq, o‘rta, yaqin, ko‘zlay bilish, fintlar, hujum, himoya.

Abstract: Each distance acquisition takes place in different conditions and has its own rules. The time to strike and defend depends on the distance between the opponents. The shorter the combat distance, the faster and imperceptibly the blow will reach the target, and the more difficult it will be to defend against it. The longer the distance, the easier it is for the boxer to defend himself from his opponent's blows. For each distance there is a time limit that determines the possibility of protection from blows. Female boxers have better conditions for defense at long distance than at middle distance, and at middle distance than at close range. Although it takes more time to perform actions at long range than at medium range, it is still measured in seconds.

Keywords: international, strong, fight, art, necessary, boxer, long, medium, close, vision, feints, attack, defense.

Аннотация: Каждое дистанционное приобретение происходит в разных условиях и имеет свои правила. Время для нанесения удара и защиты зависит от расстояния между противниками. Чем короче дистанция боя, тем быстрее и незаметно удар достигнет цели и тем труднее будет от него защититься. Чем длиннее дистанция, тем легче боксёру защититься от ударов противника. Для каждой дистанции существует лимит времени, определяющий возможность защиты от ударов. У женщин-боксеров лучшие условия для защиты на дальней дистанции, чем на средней, и на средней дистанции, чем на ближней. Хотя на выполнение действий на дальней дистанции требуется больше времени, чем на средней, оно все равно измеряется секундами.

Ключевые слова: международный, сильный, бой, искусство, необходимый, боксер, дальний, средний, ближний, видение, финты, атака, защита.

O‘zbekistonda boks - eng ommaviy olimpiya sport turlaridan biri. Bokschi qizlarning bunday keng ommalashuvi uning tomoshabopligi, sport kurashining yuqori emotsional shiddati va insonning harakat, psixik hamda irodaviy sifatlariga har tomonlama ta’sir ko‘rsata olishi bilan tushuntiriladi. Boks yildan yilga xotin-qizlar orasida keng tarqalmoqda. Har yili

yuqori malakali bokschi qizlar qatorini katta muvaffaqiyatlarga erishib kelayotgan iqtidorli va mohir sportchilar to‘ldirmoqda.

Boks sportchidan nafaqat jismoniy, balki aqliy jihatdan ham yuqori darajada rivojlanishni taqozo etadi. Jangda “tez fikrlovchi”, ringdagi doimo o‘zgarib turadigan vaziyatlarni to‘g‘ri baholay va tahlil qila oladigan, texnik hamda taktik jihatdan yaxshi tayyorlangan sportchi g‘alaba qozonadi. Xalqaro musobaqalarda raqobatning yuksak darajada o‘tib borishi yuqori malakali bokschi qizlarning tayyorgarlik darajasi, vositalari va uslublarini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Hozirgi bosqichda yangi mashg‘ulot uslublarini ishlab chiqish, ish qobiliyatini oshirishning yangi samarali vositalarini izlab topish o‘zbek bokschi qizlarining sport mahoratini oshirish asosi hisoblanadi.

Taktika - boks nazariyasi jang olib borish uslubi turli xil bo‘lgan raqiblar bilan olishish shakllari, turlari, uslublari va variantlari o‘rganiladi. Bokschi qizlarning taktik mahorati jangning to‘g‘ri tashkil qilinishi va uning boshqarilishi bilan belgilanadi. Bokschi qizlarning taktik mahorati raqibning kuchli tomonlarini bartaraf etish, uning bo‘sh tomonlaridan foydalanish va shu bilan bir vaqtda individual jang olib borish uslubini qo‘llay bilishida namoyon bo‘ladi. Jangni boshqarish, uni olib borish san‘ati jang rejasini amalda qo‘llay olish, unga aniqlik kiritish, zarur hollarda esa jang davomida uni o‘zgartira olishdan iborat. Jangni boshqarish ko‘nikmasi bokschi qizlarning jangovar tez fikrlashiga, uning irodaviy sifatlariga bog‘liq. Jang rejasini tuzish bokschining chuqur fikrlash, raqib harakatlarini tahlil qilish va sintezlash qobiliyatiga, shuningdek, texnik-taktik vositalarning egallanganlik darajasiga bog‘liq.

Ular qancha turli-tuman bo‘lsa, jangni rejalashtirish variantlari shuncha ko‘p bo‘ladi. Olishuvni rejalashtirish va uni boshqarish bokschi qizlarning turli xil jang shakllarini qay darajada mukammal o‘zlashtirib olganligi bilan chambarchas bog‘liq. Yuqori malakali bokschi qizlarni tayyorlash tizimi, jumladan ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonining davrlari, bosqichlari, shu davr hamda bosqichlarida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik va taktik tayyorgarlik bo‘yicha qo‘llaniladigan mashg‘ulot sikli (mikro, mezo va makrotsikllar), mashqlar hajmi va shiddati, ularning nisbati, musobaqa oldidan ish qobiliyati va sport formasini shakllantirish, vaqtinchalik saqlab turish, pasaytirish, uni qayta tiklash, yanada o‘stirish kabi muammolar bugungi kunda soha olimlari tomonidan ilmiy asoslab berilmoqda.

Hujumkor - shakldagi jang tashabbusni olib qo‘yishni nazarda tutuvchi raqib bilan olishishning faol shakli. U uzoq, o‘rta va yaqin masofalardagi hujum, qarshi va javob harakatlari yordamida amalga oshiriladi.

Himoya - shaklidagi jang tashabbusni tortib olgan raqibdan himoyalash shakli hisoblanadi, bunda u mustaqil va yordamchi bo‘g‘in bo‘lishi hamda hujumning rivojlanishida birga amalga oshirilishi mumkin. Mashg‘ulotlarda ko‘proq shartli janglarda trener topshirig‘i bilan cheklangan hujum, himoya va qarshi hujum harakatlari takomillashtiriladi. Boks texnika va taktikasi asosan murakkab bo‘lgan jangovar vaziyatga yaqin sharoitlarda takomillashtiriladi. Bunda trener bilan individual mashg‘ulot jarayonida ishlash usuli samarali hisoblanadi.

Texnikani takomillashtirish mashg‘ulotlarida shakllanadigan sifatlar bilan bir qatorda bokschi qizlarda, shuningdek oldindan ko‘zlay bilish reaksiyasi tezligi hamda aniqligini (oldindan signallarni tahlil qilish bo‘yicha va ehtimolga yaqin bashorat natijasida) hamda murakkab tanlash reaksiyasini takomillashtiradi. Texnikani takomillashtirish bo‘yicha mashg‘ulotning asosiy qismidan farq qilmaydigan tayyorgarlik qismidan so‘ng bokschilar

shartli jangdagi mashqlari hamda trener bilan individual mashg’ulotlarga kirishadilar. Ularda turli xil aldamchi harakatlarni (chalg’itish va chorlashlar, turli masofalarda manyovr olib borish, jumladan oyoqlarda mohirlik bilan siljib yurish), uzoq, o’rta va yaqin masofalarda hujum, himoya hamda qarshi hujum harakatlari, yaqin masofaga kirish va undan chiqish, ringda arqonlar yonida va ring burchagida harakatlarni bajarish, fintlar, hujum, himoya hamda qarshi hujum harakatlarini qo’llagan holda bir masofadan boshqasiga o’tishni takomillashtiradilar.

Zamonaviy jang - turli masofalarda bajariladigan siljishlar, zarba va himoya harakatlarining murakkab uyg’unligidir. Raqiblar jangovar harakatlarini olib boradigan masofa ko’p hollarda bokschi qizlarning texnikasi xususiyatlarini, jangda turli xil jismoniy va irodaviy sifatlarning namoyon bo’lishini belgilab beradi. Har bir masofadagi olishuv turli-tuman sharoitlarda o’tadi va o’zining qonuniyatlariga ega. Zarbalarni berish va himoyaga o’tish vaqti raqiblar o’rtasidagi masofaga bog’liq. Jangovar masofa qancha qisqa bo’lsa, zarba shuncha tez va sezilmasdan nishonga yetib boradi hamda undan himoyalani shuncha qiyin bo’ladi. Masofa qancha uzoq bo’lsa, bokschi raqibi zarbalaridan shuncha osonlikcha himoyalani. Har bir masofa uchun zarbalardan himoyalani imkoniyatini belgilab beruvchi vaqt chegarasi mavjud. Bokschi qizlarda uzoq masofada o’rta masofaga qaraganda, o’rta masofada esa yaqin masofaga qaraganda himoyalani uchun yaxshi sharoit mavjud. Uzoq masofada o’rta masofaga nisbatan harakatlarni bajarish uchun vaqt ko’p bo’lishiga qaramasdan, u baribir sekundlarda hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalmuxamedov R.D. Boks. -Toshkent. Lider Press, 2008.
2. R.D.Xalmuxamedov, V.N.Shin, S.S.Tajibaev, F.K.Turdiev, G’.Q.Rajabov. “Boks nazariyasi va uslubiyati”. Darslik, Toshkent, 2018-yil. 372 bet.
3. Turdiev F.K. Boks trenerining individual dars olib borish jarayonidagi maxsus malakalarini shakllantirish: Dis...kand.ped.nauk – T., 2002 – 132 s.
4. Achilov A.M, Xalmuxamedov R.D., Shin V.N, Tajibaev S.S, Rajabov G’.Q. “Yosh bokschilarni tayyorlash asoslari” “MUMTOZ SO‘Z” 228 bet. 2012 y. 228 bet.